

EKOLOGIK MUAMMOLAR

*Abdurahimov Sardorbek.
Chirchiq davlat pedagogika
univeriteti Gumanitar fanlar
fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq talimi yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Ushbu maqola dunyoning avvalgi, hozirgi va kelajakdagi ekologiyasi haqida foydali ma'lumotlar hamda foydali yo'nalishlar berishda yordam beradi. Ekologik muammolarni birgina o'zimizning yurtimiz misolida ko'raylik. Hozirgi davrda aynan 2023-2024-yillarda yurtimiz ekologiyasigada salbiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Afsuski dunyo miqiyosida havosi ifloslangan shaharlar ichida yuqori qatorlarga ko'tarildi.

Bunga asosiy sabablari shu yurtda yashab kelayotgan insonlarning atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lmayotganliklari, o'simliklar, daraxtlar va shu kabi tabiat ne'matlariga zarar yetkazilishi, insonlarning ehtiyojlari ortib borishi kabi qator holatlarni keltirib o'tishmiz mumkin.

Biz hozir birgina o'zimizning yurtimiz misolida ko'rdik aslini olsak bu muammo dunyo miqiyosida global muammo bo'lib kelmoqda. Jahon yovvoyi tabiatini fondi jamg'armasi hamda Londonning zoolog jamiyatini mutaxasisilari hamkorligida o'tkazilgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra 1970-yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3000 turga, havo va qururlikda yashaydigan jonivorlar turlari 76% ga, yer usti va suvda kun kechiruvchilar soni esa 39% ga qisqargan, har yili 11 million hektar o'rmonlar kesilmoqda. Bularning barchasi ekologiyaning yanada yomonlashayotganidan dalolat beradi.

O'zingiz o'ylab ko'ring hozirgi kundan dunyo ekologiyasi shu darajada bolsa, 10 yildan keyin atrof-muhit va ekologiya qanday ko'rinishda bo'ladi? Biz o'zimizdan keyingi avlodaga qanday kelajakni meros qilib qoldirmoqdamiz? kabi og'riqli savvollar bizni qachongacha qiynab keladi?

Birgina mashinada harakatlanayotgan insonning mashina oynasidan plastik buyum yoki qog'ozni uloqtirib yuborayotganligi bu insonlarning ekologik madaniyati yo'qligidan dalolat beradi. Afsuski jamiyatimizda bunday insonlar kam emas. Shu birgina kichik bo'lgan chiqindi kunlar o'tib ekologiyamizning zararlanishiga hissa qo'shgan hisoblanadi.

Menimcha bularning oldini olishimiz uchun insonlar orasida ekologik madaniyatni rivojlantirishimiz, ularga ekologik muammolarning ko'paygan sari

ularning oqibatlari qanday bo‘lishini tushuntirishimiz hamda ularga atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishlarini talab qilishimiz zarur.

